

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Ilmiy ishlar va xalqaro  
aloqalar bo‘yicha prorektor  
R. Shirinova**

**2026-yil**



**08.00.13 - “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha  
oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni**

**DASTURI**

**TOSHKENT-2026**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2-sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

Raximova D.N. – Davlat siyosati va boshqaruvi maktabi” professori,  
i.f.d., professor

Xolov A.X Oliy ta’limdan keying ta’lim va tadqiqotlar maktabi  
dekani i.f.f.d., dotsent

**Taqrizchilar:**

Po‘latov D.H. iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Umarov A.T. iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoniga muvofiq mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur‘atlar oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg‘or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmoqda.

Ayniqsa, hozirgi globallasuv davrida menejment sohasidagi xalqaro andozalarni mamlakatimiz ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda menejment sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holatidan va chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotidan kelib chiqadi.

Dasturda qo‘yilgan mavzu va masalalar “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha (PhD) falsafa doktori va (DSc) fan doktorligiga da‘vogarlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo‘yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab qiladi.

Mazkur masalalar bo‘yicha nazariy muammolar (PhD) falsafa doktori va (DSc) fan doktorligiga davogarlarning shaxsiy qarashlari shakllanishini yuzaga chiqarishga qaratilgan.

Dastur 08.00.13 – “Menejment” ixtisosligi pasportiga tegishli bo‘lgan barcha masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Ushbu dastur 08.00.13 – “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha (PhD) falsafa doktori va (DSc) fan doktorlik ilmiy darajasiga talabgor doktorant va mustaqil izlanuvchilari uchun mo‘ljallangan.

## **I BO‘LIM. MENEJMENT**

### **“Menejment” fanining predmeti, mazmuni va vazifalari**

“Menejment nazariyasi”, "Menejer" va "Biznesmen" tushunchalarining mohiyati. Fanning predmeti va izlanish uslublari. Fanning mohiyati, maqsad va vazifalari. Menejment asoslarini o‘rganishning dolzarbligi. Menejment konsepsiyalari va ularning asoschilari. Boshqaruv ilmining o‘ziga xos xususiyatlari. Boshqaruvning kelajakka yo‘naltirilganligi. Kursning mazmuni va vazifalari.

Boshqarishda sifat o‘zgarishining obyektiv zarurati. Menejmentning boshqa fan sohalari bilan aloqadorligi.

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish sharoitlarida menejmentni rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

### **Boshqaruv tafakkurining evolyutsiyasi**

Qadimgi amaliyot-yangi fan. Boshqaruvning fan sohasi kabi evolyutsiyasi. Eski va zamonaviy tashkilotlarni taqqoslash. Boshqarishga tizimlashtirilgan qarash. Boshqaruvga yondashuvlar. Jarayon kabi yondashuv. Tartibli yondashuv. Vaziyatli yondashuv.

Turli maktablarni ajratish asosidagi yondashuvlar.

Ilmiy boshqaruv (1985 - 1920).

Boshqaruvda klassik yoki ma‘muriy maktab (1920-1950).

Insoniy munosabatlar maktabi (1930-1950).

Boshqaruv fani yoki miqdoriy yondashuv (1950-hozirgi vaqtgacha).

Axloq fanlarining rivojlanish maktabi. Operatsiyalar tadqiqoti va modellar. Miqdoriy yondashuvning ta’siri.

Menejment nazariyasi asoschilari. Teylor, Ford, Gilbert, Emerson, Fayol va boshqalar haqida.

Iqtisodiyotni boshqarish tizimining rivojlanishi. Menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi, uning shakllanish bosqichlari. So‘nggi yillarda boshqarish nazariyasi va amaliyotidagi o‘zgarishlar. Turli mulkchilik shakllari va raqobatchilik sharoitida menejment.

“Harbiy kommunizm” va yangi iqtisodiy siyosat davrida boshqarish mexanizmi. 60-yillarda boshqarishni tashkil etishning takomillashtirilishi.

So‘nggi yillarda boshqarish nazariyasi va tajribasidagi o‘zgarishlar. Bozor munosabatlariga o‘tish va turli mulkchilik shakllari sharoitida boshqarish tizimi va tajribasini qaytadan tashkil etishda kompleks usullar. Turli mulkchilik shakllari va raqobat sharoitida zamonaviy boshqaruv. O‘zbekistonda menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi.

### **Menejment qonunlari va tamoyillari**

Umumiy falsafiy dialektik qonunlar. Boshqarish tizimida bozor qonunlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment qonunlari va tamoyillarini o‘rganishning ahamiyati. Boshqarish va ishlab chiqarishning mosligi qonuni. Boshqarish funksiyalarini markazlashtirishning nisbiy optimalligi qonuni. Boshqarish

qonunlarining menejment amaliyotida qo'llanilishi. Menejment tamoyillari. Menejment tamoyillarining tarkibi va mohiyati.

### **Menejmenting tashkiliy tuzilishi**

Boshqarishning tashkiliy tuzilishi haqida tushuncha. Boshqarish tashkiliy tuzilishining turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari.

Chiziqli, tuzilma, funksional tuzilma, chiziqli-shtabli tuzilma, chiziqli-funksional tuzilma, matritsali tuzilma, xizmatli tuzilma, divizional tuzilma, loyihalari tuzilma, brigadali tuzilma, maqsadli tuzilma tashkiliy iste'molchiga mo'ljallangan tashkiliy tuzilma, mintaqaviy tuzilmalar haqida. Byurokratik tashkiliy tuzilma. Maks Veberning byurokratiya haqidagi nazariyasi. Ratsional byurokratiya ta'riflari.

Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini loyihalashtirish. Rejalashtirish va tashkiliy loyihalashtirish. Tashkiliy loyihalashtirish bosqichlari. Byurokratiyaning salbiy ta'riflari. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida boshqarishning tashkiliy tuzilishini isloh qilish va rivojlantirish.

Boshqaruv faoliyati yangi shakllarining tashkil topishi va ularning samaradorligi. Davlat boshqaruvi va xo'jalik hokimiyatlarini boshqarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Korxonalar to'g'risida"gi Qonunida yangi tashkiliy tuzilmalar yaratishning aks ettirilishi. Mulkchilik shakllari va korxonalarining turli-tumanligi. Mustaqil xo'jalik tuzilmalarining shakllanishi. Davlat boshqaruv organlarining tuzilishi va "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy territorial tuzilishi masalalarining hal qilinish tartibi to'g'risida" Qonuni. Boshqaruv yangi tuzilmalarini shakllantirish va faoliyatiga bozorning ta'sir etishi.

### **Menejment usullari**

Menejment usullari haqida tushuncha. Menejment usullarining turlari. Boshqarishning iqtisodiy usuli-bozor iqtisodi xo'jaligining samarali yuritish asoslari. Tashkiliy-farmoyish usuli, uning mohiyati va tavsifi. Tashkiliy-farmoyish usulining boshqaruvdagi roli. Tashkiliy-farmoyish usulining tabaqalanishi. Menejmentning sotsial-psixologik usullari, ularning turlari va mazmuni. Menejmentning axloqiy va ruhiy jihatlari.

Menejmentning huquqiy usullari. Bozor iqtisodining rivojlanishi va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda menejment kompleks usullarining ahamiyati. Zamonaviy menejmentning huquqiy usullari. Menejment faoliyatining samaradorligini oshirishda menejment usullarining ahamiyati.

### **Menejment qarorlarini qabul qilish**

Menejment qarorlarining mohiyati va xususiyatlari. Menejment qarorlarining turlari. Menejment qarorlarini qabul qilish bosqichlari. Menejment qarorlariga qo'yiladigan talablar.

Menejment qarorlarini optimallashtirish usullari. Optimal boshqarish va bajarish nazoratini tashkil etishda menejmentning roli.

Qaror qabul qilish axborot texnologiyalari. Qaror qabul qilishni qo'llab quvvatlashning axborot texnologiyasi iteratsion jarayon sifatida. Qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash axborot texnologiyalarining asosiy komponentlari.

## **Menejer faoliyatini tashkil etish**

Menejment tizimida menejer. Bozor sharoitida kadrlar siyosati. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Menejment mehnatining mazmuni, xarakteri va xususiyati. Zamonaviy menejer liderning kasb-malaka modeli. Ishlab chiqarishning turli sharoitlarida menejning ish uslubi. Boshqarish psixologiyasi. Yapon va Amerika usullari. Zamonaviy bosqichda menejer etikasi va menejer madaniyati. Menejerlarni tanlash, baholash va attestatsiyadan o'tkazish yo'llari. Menejerlar faoliyatini baholashda reyting tizimi. O'zbekistonda menejerlarni tayyorlash va o'qitish usullari.

## **Menejment tizimida tadbirkorlik va biznes**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes tushunchalari. Korxonabozor iqtisodiyoti tizimi sifatida. Iqtisodiyotning boshqarish tizimi va tadbirkorlik. Menejment tizimi va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari.

Tadbirkorlik turlari. Biznes-reja, uning mohiyati va tuzilishi.

Biznes-rejaning mohiyati va maksadi. Bozor sharoitida korxonalarda biznes rejaning mohiyati. Biznes-rejani tayyorlash va undan foydalanish. Biznes-rejaning tuzilishi: ishlab chiqarish, marketing, menejment, tavakkalchilik turlari, moliyaviy reja va boshqalar. Biznes-rejaning yakunlovchi bo'limi.

Biznes reja tuzishda qo'llaniladigan hujjatlarning turlari. Rezyume, mahsulot yakka xizmat turlari, tovar yetkazadigan bozor, marketing strategiyasi, ishlab chiqarish dasturi, korxonaning tashkiliy-rejavli shakli, moliyaviy reja. Biznes-rejani bajarilishi ustidan nazorat.

## **Personalni boshqarish**

Korxon va tashkilotlarni shakllantirishda inson omili. "Personal" tushunchasining mazmuni. Personalni boshqarish tizimlari. Inson resurslarini boshqarish funksiyasining rivojlanishi. Personalni boshqarish tamoyillari va usullari.

Kadrlarni rejalashtirish mohiyati, maqsad va vazifalari. Korxon va tashkilotlardagi xizmat martabasini boshqarish. Martaba bosqichlari. Xizmat martabasini boshqarish. Korxon va tashkilotlarda personal xulq-atvorini boshqarish.

Kadrlarga oid yangiliklarning mohiyati. Kadrlar ishida yangiliklarni sabab jihatdan ta'minlash. Personal boshqaruvida mehnat munosabatlari etikasi. Mehnat munosabatlarini tashkil etishda shaxslararo munosabatlar. Salomlashish, taqdim qilish va ishbilarmon kishining tashqi qiyofasi. Ishga oid suhbat yuritish va telefonda gaplashish odobi. Tanqid qilish va tanqidni qabul qilish qoidalari. Notiqlik san'ati asoslari.

## **Davlat menejmenti**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruvining roli. Bozor munosabatlarining shakllanish davrida boshqaruv vazifalarining o'zgarishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruvini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va ijroiya hokimiyati. Oliy qonunchilik hokimiyati. Mahalliy hokimiyatlar va ularning vazifalari. Davlat boshqaruvini takomillashtirish zarurati.

## **Ijtimoiy menejment**

Bozor sharoitida ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy dastur va uning menejmentdagi o'ri. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Mehnat bozori. Ijtimoiy boshqaruv obyekti. Jamoaning ijtimoiy rivojlanishi. Inson xulqi omillari tizimi. Guruhlar va ularning ahamiyatlari. Xotom tajribalari. Menejment nazariyasiga Xotom tajribasi ta'siri. Ijtimoiy tadqiqotlar natijalarining menejmentda qo'llanilishi. Menejmentda inson omili. hozirgi sharoitda ijtimoiy muammolarni hal etishning xorijiy tajribalari.

## **Huquqiy menejment**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejmentning huquqiy asoslari. Menejmentning huquqiy muammolari. O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi va "Mulkchilik shakllari to'g'risida"gi Qonunlarining menejmentdagi ahamiyati. Korxonada huquqiy menejmentning o'ri. Korxonada mehnat jamoasini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. Korxonaning moliyaviy resurslarini huquqiy boshqarish. Huquqiy menejmentning xorijiy tajribasi.

## **Menejment samaradorligi**

Boshqarish samaradorligi-iqtisodiy kategoriya sifatida. Boshqarish samaradorligini oshirish-bozor iqtisodiyotining muhim sharti.

Iqtisodiy va ijtimoiy boshqaruv samaradorligi tushunchalari. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari.

Boshqaruv samaradorligini oshirish omillari va rezervlari. Boshqaruv samaradorligini baholash usullari. Boshqaruv samaradorligini oshirish loyihalarini iqtisodiy asoslash.

## **Inson resurslari boshqaruvining shakllanish asoslari**

Inson resurslari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Inson resurslarining shakllanish omillari. Rivojlangan xorijiy davlatlarda inson resurslarining shakllanish xususiyatlari. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish. Inson resurslari boshqaruvini bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirishning zarurligi. Inson resurslarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. G'arbiy Yevropa davlatlarida inson resurslari boshqaruvining tashkil etishning tamoyillari va tajribasi. O'zbekistonda inson resurslarini tashkil etish konsepsiyasi.

## **Inson resurslarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari**

Inson resurslari boshqaruvining ilmiy konsepsiyasi. Inson resurslari boshqaruvining asosiy sifat ko'rsatkichlari. Inson resurslari boshqaruvining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini takomillashtirishning hozirgi zamon talablari.

Korxonalarda personalni boshqarish ilmiy konsepsiyasining mohiyati. Inson resurslarini boshqarish va tashkilotning ichki va tashki muhitini rivojlanishi. Tashkilotning iqtisodiy va boshqa imkoniyatlarga bevosita bog'liqligi. Inson resurslarini boshqarishda strategik boshqaruvning xususiyatlarini qo'llash. Inson resurslari boshqaruvida kadrlar siyosatini amalga oshirishning asosiy vazifalari. Inson resurslari boshqaruvida inson omilini qo'llash. Ratsional va gumanistik boshqarish

usullar haqida tushuncha. Faol kadrlar siyosatini inson resurslar boshqaruvida qo'llash. Firma va korporatsiyalarda inson resurlarini boshqarishda mehnat salohiyatiga tayanish. Inson resurslari konsepsiyasini mehnat resurslari konsepsiyasidan farqi.

### **Inson resurslari boshqaruvin tashkil etishda menejment qarorlarini qabul qilish**

Inson resurslari boshqaruvida menejment qarorlarining mohiyati va xususiyatlari. Inson resurslari boshqaruvida menejment qarorlarining turlari. Inson resurslari boshqaruvi qarorlarini qabul qilish bosqichlari. Inson resurslari boshqaruvi qarorlariga qo'yiladigan talablar. Inson resurslari boshqaruvin tashkil etishda menejment qarorlarini optimallashtirish usullari. Optimal boshqarishni tashkil etishda menejmentning roli.

### **Inson resurslari boshqaruvida strategik rejalashtirish**

Inson resurslari boshqaruvida strategik rejalashtirish asoslari. Mehnat faoliyatda strategik qaror qabul qilish. Mehnat munosabatlarni o'rnatish shakllari. Inson resurslari boshqaruvi strategiyasi va strategik rejalashtirish.

Inson resurslari boshqaruvida strategik rejalashtirishni tashkil etish. Strategik rejalashtirishning protsedurasi. Boshqarish strategiyani tatbiq etish. Formal va noformal tashkiliy madaniyat. Inson resurslari boshqaruvin strategik rejalashtirish madaniyati. Strategik rejalashtirishda o'ziga xos madaniyat. Strategik rejalashtirish tizimlari va boshqa koordinatsiya mexanizmlari.

### **Inson resurslarini boshqarishda chet el tajribalari**

Chet el firmalarida inson resurslarini boshqarishning asosiy usullari. AQShda inson resurslarini boshqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Yaponiya firmalarida inson resurslarini boshqarish asoslari. Inson resurslaridan boshqarishning ijtimoiy-iktisodiy xususiyatlari.

Inson resurslarni boshqarishda chet el firmalarda kadrlar siyosatiga katta ahamiyat berish. Chet el firma va korporatsiyalarda moddiy va ma'naviy qiziqishning asosiy yo'nalishlari. Chet el firma va korporatsiyalarda ijtimoiy kompleksni yaratish asoslari. Inson resurslarini boshqarishda chet firma va korporatsiyalarda ekstensiv va intensiv usullarini qo'llash.

Yaponiya firma va korporatsiyalarida "kanban" va boshqa menejment usularidan foydalanish. Yaponiya korporatsiyalarida inson resurslari boshqaruvin mehnat unumdorligi usishi bilan bog'liqligi. Umrni oxirigacha yollanish tizimi. Kadrlar rotatsiya tizimi. Reputatsiya tizimi. Ishchi o'rinlarida tayyorlash tizimi. Mehnatga xaq to'lash tizimi. Yaponiya kompaniyalarining boshqarish samaradorligi.

### **Inson resurslarini boshqarishning iqtisodiy samaradorligi**

Inson resurslarini boshqarishni tashkil etishda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash asoslari. Inson resurslarini boshqaruvin tashkil etishda intensiv va ekstensiv yo'llarning ahamiyati.

Ijtimoiy yunaltilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirishning asosiy yoʻnalishlari. Inson resurslaridan samarali foydalanishning asosiy mezonlari. Inson resurslari boshqaruvini takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlari.

### **Ijtimoiy menejmentning rivojlanishi va uning ilmiy maktablari**

Menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi. Rivojlanishning turli tarixiy bosqichlari va evolyusiyasi. Inson tarixidagi beshta boshqaruv inqilobining mohiyati.

Menejmentning ilmiy maktablari. Klassik boshqaruv maktabi. Klassik boshqaruv maktabi namoyandalari F. Teylor, A. Fayol, G. Emerson, L. Urvik, M. Veber, G. Ford tamoyillari.

“Inson munosabatlari maktabi” namoyondalari E. Meyo, K. Ardjeris, F. Xersberg, D. Mak-Gregor, R. Bleyk va boshqalarning mehnatni mukammallashtirish usullari.

Boshqaruvning empirik maktabi vakillari P. Druker, R. Devis, L. Nyumen, D. Millerning boshqaruv nazariyalari.

Ijtimoiy tizimlar maktabi vakillari D. Marg, G. Saymon, A. Etsioni nazariyalari. “Yangi maktab” namoyandalari R. Ansoff, S. Vir, L. Bertalanfi, R. Kalman, L. Kleyn, R. Lyus, D. Forrester boshqaruv nazariyasidagi yoʻnalishlarning rivojlanishi. Ijtimoiy menejment manbalari. Inson munosabatlari. Ijtimoiy tizim. Inson resurslari menejmenti.

### **XX asr oxiri XXI asr boshqaruv madaniyati**

Zamonaviy boshqaruv madaniyati. Boshqaruv madaniyati elementlari. XXI asrda dunyodagi global xarakterdagi muammolar. Dunyodagi yangi milliy madaniyatlar.

XXI asr talabiga javob beradigan boshqaruv modeli. Yaponiyada boshqaruv tizimi va boshqaruv madaniyatining shakllanishi. Yapon boshqaruv modeli va boshqaruv madaniyatining asosiy jihatlari.

Ijtimoiy menejment madaniyatining shakllanishi. Inson resursining ochilishi. Boshqaruv madaniyatining bosh mazmuni. Boshqaruv tizimini qurish, ichki va tashqi muhit taʼsirlari.

Tashkil etish madaniyati konsepsiyasi. Inqiroz holatlari va ularga toʻgʻri taʼsir etish.

Ijtimoiy boshqarishni shakllantirishning umumiy tamoyillari. Boshqaruvning aqliy tizimlari va madaniyati.

### **Strategiyani boshqarish jarayoni**

Strategiya tushunchasi, uning mazmuni. Strategiyaning rejadan farqi. Kompaniyani boshqarish vazifalari, ularning asosiy turlari.

Kompaniya strategiyasini ishlab chiqish boʻyicha menejerlarning vazifalari. Kompaniya missiyasi va strategik qarashlarini belgilash. Kompaniya strategiyasining asosiy savollari. Strategik boshqarish maqsadi. Maqsadlarning turlari: qisqa muddatli, uzoq muddatli, moliyaviy, strategik. Strategiyaning belgilashga taʼsir etuvchi omillar: ichki omillar, tashqi omillar.

Strategiyaga aniqliklar, o'zgartirishlar kiritish. Strategiyani baholash uchun qo'yiladigan savollar. Strategiyani amalga oshirish bo'yicha ma'muriyatning vazifalari. Strategik boshqarishning besh vazifasi. Strategiyani amalga oshirishda ijrochi direktorning o'rni. Kompaniya strategiyasini belgilashda prezidentning o'rni va vazifalari. Vitse-prezidentlarning vazifalari. Turli darajadagi menejerlar va ularning vazifalari. Rejalashtirish bo'limi va uning vazifalari.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish sharoitlarida strategik menejmentni rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

### **Diversifikatsiyaning korporativ strategiyalari**

Kompaniyaning rivojlanish bosqichlari. Boshlang'ich bosqich belgilari. Ixtisoslashuvi. Geografik ekspansiya bosqichi. Kompaniyani yangi tarmoqqa diversiya qilish. Mahalliy bozordan hududiy-milliy va xalqaro bozorlarga chiqish. Tor ixtisoslashish va uning qulayliklari. Tor ixtisoslashishning kamchiliklari va xatarli jihatlari. Diversiyalanishga undovchi omillar. Kompaniyaning o'sish va rivojlanish uch bosqichi.

Diversiyalanishni qo'llashdan tub maqsad. Diversiyalanish uchun tarmoq tanlash mezonlari. Jozibadorlik mezoni. Kirim xarajatlari mezoni. Qo'shimcha manfaatlar mezoni. Diversiyalash yo'llari. Ichki kapitallar bozori orqali. Funktsiyalar yoki resurslarni taqsimlash orqali. Vertikal integratsiya usuli. Diversiyalash yo'llarining ijobiy va salbiy tomonlari.

### **Tarmoq jozibadorligini aniqlash va korporativ strategiyani ishlab chiqish**

O'rta korxonalar evolyusiyasi matritsasi ahamiyati. Diversiyalangan kompaniya strategiyasini baholash. Tarmoq jozibadorligini baholashning uch yo'nalishi. Diversiyalangan kompaniyani tasniflash. Strategik moslik tahlili. Firmalarni investitsiya qobiliyatiga ko'ra tabaqalashtirish. Diversiyalangan korporatsiya strategiyasini aniqlash. Korporatsiya strategiyasini baholash bosqichlari. Korporativ strategiyani ishlab chiqish. Ishchanlik faolligi mezonlari.

Tarmoq jozibadorligini baholash yo'nalishlari. Xo'jalik bo'linmalarining kompaniya biznesiga mos kelish darajasi. Kompaniya portfelining korxonalar, tarmoqlar bo'yicha tahlili. Tahlil natijalariga ko'ra tashkiliy xulosalar yasash. Kompaniya xo'jalik portfelini qayta ko'rib chiqish. Biznes sohasiga kirishning strategiyasi. Xarid qilish. Yangi ichki korxonalar. Hamkorlikdagi tadbirkorlik. Strategiyani tanlashga bog'liq omillar. Kompaniyaning bozordan ketish strategiyasini tanlash.

### **Innovatsion menejmentning funksiyalari va usullari**

Innovatsion faoliyatni boshqarish funksiyalarining tizimi. Korxonalar yoki tashkilot innovatsion faoliyatining maqsadlari. Innovatsion menejment maqsadlarining umumiy tasnifi. Rejalashtirish innovatsion menejmentning maxsus funksiyasi sifatida. Innovatsion menejmentda rejalashtirish jarayonining bosqichlari. Ishlab chiqarishning

kelgusidagi yangilanishi va takomillashtirilishi uchun zaxiralarni izlash. Innovatsion faoliyatni tashkil etish. Tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish tashkil etish funksiyasining muhim vazifasi sifatida. Innovatsion menejmentda kommunikatsiyalar jarayoni. Innovatsion menejmentda kommunikatsiyalarning turlari. Kichik guruhlarda dastlabki axborotni shakllantirish jarayoni. Motivatsiyani boshqarish. Motivatsiyaning jarayonli modeli. Muvofiqlashtirish innovatsion menejmentning markaziy funksiyasi sifatida. Muvofiqlashtirish funksiyasini amalga oshirish bosqichlari. Innovatsion menejmentda nazorat. Innovatsion faoliyatda qo'llaniladigan nazorat turlari. Innovatsion faoliyatni nazorat qilish usullari. Innovatsion menejmentda boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Boshqaruv qarorlarining turlari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining bosqichlari. Innovatsiyalarni prognozlash usullari.

### **Innovatsion menejmentning tashkiliy shakllari**

Tashkilot innovatsion faoliyatning subyekti va jarayoni sifatida. Innovatsion tashkilotlarning xususiyatlari. Innovatsion korxonalar faoliyatining sohasi. Tashkilotlarning innovatsiyalar hayotiylik davrining bosqichlari bilan bog'liqligi. Ilmiy-texnik va innovatsion soha tashkilotlarining tasnifi. Zamonaviy innovatsion firmaning xususiyatlari. Intellektual o'zini-o'zi boshqaruvchi uyushma. Innovatsion firmaning shakllanishida integratsiya va diversifikatsiyaning roli. Diversifikatsiyalashmagan kompaniyaning korporativ strategiyalari. Firmani diversifikatsiyalash strategiyalarining oltita turi. Konsorsiumlar firmalararo integratsiyaning istiqbolli turi sifatida. Innovatsion faoliyatda moliyaviy-sanoat guruhlarining roli. Innovatsion markazlarning iqtisodiyot samaradorligining oshishiga ko'rsatadigan ta'siri. Texnoparklar va ular tomonidan hal etiladigan vazifalar. Innovatsion infratuzilma va uning innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi roli.

### **Personalni innovatsion boshqarish**

Personalni boshqarish. Innovatsion menejmentda mutaxassislarni rejalashtirish va tanlash xususiyatlari. Innovatsion faoliyatda personalni baholash mezonlari. Korxonalar va tashkilotlarda xodimlarga qo'yiladigan talabga innovatsion jarayonning o'ziga xos jihatlari ta'siri. Ijtimoiy boshqaruvning texnik-tashkiliy tomoni. Innovatsion loyihalar bo'yicha ishlaydigan jamoaning tuzilmasi va xususiyatlari. Innovatsion jamoani boshqarish uslubi. Innovatsion jamoalarda kommunikatsiya. Innovatsion jamoalarda rollarning taqsimlanishi. Korxonalar va tashkilotlarda innovatsiyalarning joriy etilishiga qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar. Innovatsiyalarning joriy etilishiga ko'rsatiladigan qarshilikni bartaraf etish usullari. PR usullari. Ijtimoiy guruhdagi konsensus va unga erishish yo'llari. Innovatsion jamoada nizolarning roli va ularni boshqarish usullari.

### **Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish**

Rivojlangan mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan moliyaviy resurslarning manbalari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyalashtirish subyektlari. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy moliyaviy shakllari. Innovatsion faoliyatning moliyaviy-kreditli qo'llab-quvvatlanishi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari. Innovatsion faoliyat sub'ektlarini darajalari va mulkchilik turlari bo'yicha moliyalashtirish manbalari. Davlat manbalari, budjetdan tashqari manbalar. Turli xil manbalarning maqsadlari va investitsion ustuvorliklari.

Innovatsiyalarni moliyalashtirish shakllari. Venchur tadbirkorligi va venchurli moliyalashtirishni tashkil etish. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi. Innovatsion bozorning yuzaga kelish shart-sharoitlari. Innovatsion bozorning moliyaviy ta'minoti. Investitsion bozorning tarkibi va tuzilishi. Korxonalar va tashkilotlarda investitsion resurslarning manbalari. Ishlab chiqarish sanoatida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalarining tuzilishi. Investitsiyalarni moliyalashtirishda innovatsion jamg'armalar va innovatsion banklarning roli. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish xususiyatlari. Innovatsion sohada loyihali moliyalashtirishning muvaffaqiyati.

### **Innovatsion loyihalar va ularning samaradorligini baholash usullari**

Innovatsion loyiha tushunchasi. Innovatsion loyiha strukturasi. Innovatsion loyiha turlari. Innovatsion loyihani ishlab chiqish fazalari. Innovatsion loyihalarni kompleks baholash va tanlash usullari. Innovatsion loyihani rejalashtirish. Loyihani boshqarishni tashkil etish. Loyihalar bo'yicha ishlarni nazorat qilish va tartibga solish. Loyiha muvaffaqiyati. Innovatsion loyihaning muvaffaqiyatini belgilovchi mezonlar. Loyihaning tayanch modeli. Innovatsion loyihaning samarasizligi sabablari. Loyihalarni yakunlash tartibi. Loyihalarni boshqarishda tarmoqli usullar. Loyihalar portfelini shakllantirish masalalari. Ijodiy guruhlarini boshqarish. Tadqiqot loyihasi uchun personalni tanlash. Loyihali boshqaruvda personalni o'qitishga nisbatan amaliy yondashuv. Innovatsion faoliyatni loyihali boshqarishning zarurligi. Innovatsion loyihani boshqarish bo'yicha menejerning asosiy vazifalari. Innovatsion loyiha tahlilining umumiy tuzilishi. Innovatsion loyiha samaradorligini baholash usullari. Innovatsion loyiha samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari. Loyihaning foydalilik indeksi usuli va uning ahamiyati. Sof joriy qiymat ko'rsatkichi. Ichki foydalilik me'yorlari ko'rsatkichi. Loyiha rentabelligi.

### **Milliy innovatsion tizimlar va innovatsion sohaning davlat tomonidan tartibga solinishi**

Milliy innovatsion tizimlar strukturasi va uning asosiy parametrlari. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning innovatsion tizimlarini tashkil etish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasida innovatsion tizim. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning regulyatorlari tizimida innovatsion siyosat. Innovatsion sohada davlatning funksiyalari. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita usullari. Davlatning innovatsion siyosati. Ilm-fan va texnologiyalar sohasida davlatning ustuvor yo'nalishlari. Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasi siyosatining asoslari. Innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi mintaqaviy loyihalar. O'zbekiston Respublikasida yangi innovatsion mexanizm. Innovatsion dasturlar. Intellektual mulk va uning davlat tomonidan himoya qilinishi. Intellektual mulkni himoya qilishning asosiy turlari: patentlar, mualliflik huquqini beruvchi guvohnomalar va tovar belgilari. Innovatsion faoliyatning huquqiy

tartibga solinishi va innovatsiyalarning himoya qilinishi. O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni himoya qilish qonunchiligini rivojlantirish. Mintaqalarning innovatsion rivojlanish dasturlari bilan investitsion rivojlanish dasturlari o'rtasidagi bog'liqlik. Innovatsion tashkilotlarga davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar.

### **Tavakkalchilikni boshqarishni takomillashtirish**

Korxonada tavakkalchilikka ega loyihalarni boshqarish bo'yicha ishlarni tashkil etish modeli. Tavakkalchilikni boshqarish jarayoni. Tavakkalchilikni boshqarish tizimini tashkil etish va rivojlantirish. Korxonada yoki tashkilotda tavakkalchilikni boshqarish tizimining boshqa tizimlar bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash. Amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan har qanday loyihalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavf-xatar omillarini kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi. Turli tavakkalchilik omillarini aniqlash va baholash ko'rsatkichlari. Korxonalarda tavakkalchilikni boshqarish tizimiga jalb etiladigan xodimlar bilan samarali ishlash usullari. Korxonada darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni. Korxonada darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tavakkalchilikning o'rni. Korxonada tavakkalchilikni boshqarish tizimchasining tuzilishi. Kutiladigan tavakkalchiliklarni aniqlashtirish. Tavakkalchilikni tahlil qilish va baholash.

### **Xalqaro menejmentni strategik rejalashtirish**

Xalqaro firmalarni strategik rejalashtirish. Xalqaro faoliyatda strategik qaror qabul qilish. Xalqaro o'zaro tasvirlarni qamrab qaror qabul qilish. Firma strategiyasining bosh maqsadini bosqichma-bosqich tatbiq etish. Strategik rejalashtirishning amaliyoti. Strategiyani tatbiq etish. Xalqaro firmalarda strategik rejalashtirishni tashkil etish. Boshqarish tuzilmasini yaratish. Tuzilmalarni ishlatish qoidalarini ishlab chiqish. Formal va noformal tashkiliy madaniyat. Strategik rejalashtirish madaniyati. Xalqaro firmalarda strategik rejalashtirishda o'ziga xos madaniyat. Xalqaro va global raqobatni taqqoslash. Nomarkazlashtirish sharoitida gibrid strategiya. Strategik rejalashtirish tuzilmalari va boshqa koordinatsiya mexanizmlari.

### **Xalqaro menejmentning rivojlanishi va o'ziga xos modellari**

Yapon modeli menejmentning o'ziga xosligi. Yapon boshqarishining xarakterli tomonlari. Umrining oxirigacha yollanish tizimi. Kadrlar rotatsiya tizimi. Reputatsiya tizimi. Ishchi o'rinlarida tayyorlash tizimi. Mehnatga haq to'lash tizimi. Yaponiya kompaniyalarining boshqarish samaradorligi. AQSh moliya-sanoat guruhlari. Yaponiyaning moliya-sanoat guruhlari. Janubiy Koreyaning moliya-sanoat guruhlari. Rossiyaning moliya-sanoat guruhlari.

## **II BO‘LIM. MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA MATEMATIK STATISTIKA ASOSLARI**

### **Matematik modellashtirishga kirish**

Matematik modellashtirish obyektiv voqelikni bilish va zamonaviy texnologiyalarni yaratish vositasi sifatida. Matematik modellashtirish va ilmiy-texnik taraqqiyot. Matematik modellashtirish va hisoblash eksperimenti. Matematik modellashtirish - bilishning universal usuli. «Model-algoritm-programma» uchligi matematik modellashtirishning ustuni sifatida. Matematik modellashtirish bosqichlari. Modellarning turlari. Matematik modellarning sintezi uslubi. Tabiatning asosiy qonunlaridan matematik modellarni hosil qilishga misollar. Atrofimizdagi olam qonunlarining chiziqsizligi, chiziqsiz matematik modellar va chiziqsizlikning kelib chiqishi. Chiziqsiz matematik modellarni saqlanish qonunlari asosida ishlab chiqish.

### **Algoritmlar va programmalarni yaratish**

Samarali algoritmlarni qurish va tahlil qilish muammolari. Ma'lumotlar tuzilmalari va iqtisodiy masalalarning algoritmlari. Zamonaviy operatsion tizimlar. Dasturlash tillarining sharhi, iqtisodda ma'lumotlar ombori. Amaliy programmalar paketlari (Matlab, Mathcad, Mathematica, Maple). Matlab, Mathcad, Mathematica, Maple paketlarida masalalar yechish. Iqtisodiy masalalarni vizuallashtirish usullari. Axborotlarni himoyalash muammolari. Axborotlarni himoyalash usullari, Xesh-funksiyalar, raqamli imzolar.

### **Moliyaviy va iqtisodiy jarayonlarning ba'zi bir modellari**

Reklama kompaniyasini tashkil qilish modeli. Korxonalar qarzarini hisobga olish. Bozor iqtisodiyoti muvozanatining makromodeli. Iqtisodiy o'sishning makromodeli.

### **Ehtimollar nazariyasi asoslari**

Elementar hodisalar fazosi. Hodisalar va ular ustida amallar. Ehtimollar nazariyasining aksiomatik qurilishi. Ehtimollikning ta'rifi va uning xossalari. Shartli ehtimol. Hodisalarning bog'liqsizligi. Bernulli sxemasi. Bog'liqsiz tajribalar ketma-ketligi uchun limit teoremlar. Tasodifiy miqdor. Tasodifiy miqdor taqsimot funksiyasi. Tasodifiy miqdorning sonli xarakteristikalar: matematik kutilma, dispersiya, momentlar. Katta sonlar qonuni. Markaziy limit teoremasi.

### **Tanlanma usuli tushunchasining asoslari**

Bosh to'plam. Tanlanma. Tanlanma xarakteristikalar. Empirik taqsimot funksiyasi va uning xossalari.

### **Nuqtaviy baholash**

Parametrik taqsimotlar oilasi. Yetarli statistikalar tushunchasi. Siljimganlik, asoslilik va effektivlik. Baholarni olish usullari: momentlar usuli va haqiqatga maksimal o'xshashlik usuli.

## **Interval baholash**

Tanlanma taqsimoti parametrlarining interval baholari. Ishonchlilik ehtimolligi. Ishonchlilik intervali. Normal taqsimot parametrlari uchun ishonchlilik intervallari. Normal qonuniyat bilan bog'liq taqsimotlar: gamma taqsimot, Student taqsimoti, Fisher taqsimoti.

## **Gipotezalarni tekshirish**

Statistik gipoteza tushunchasi. Muvofiqlik kriteriyasi. Kriteriy quvvati. Tanlanmaning bir jinslilik gipotezasini tekshirish. Bog'liqsizlik gipotezasini tekshirish: Pirsonning Xi-kvadrat kriteriyasi. Fisher kriteriyasi. Student kriteriyasi.

## **Regression analiz**

Regression va korrelyatsion bog'liqliklar. Korrelyatsiya koeffitsiyenti va uning xossalari. Kichik kvadratlar usuli. Ko'p o'lchovli korrelyatsion analiz. Nochiziqli regressiya tenglamasi. Faktorli analiz.

## **Ekonometrika va statistika**

Ekonometrikaning ta'rifi. Ekonometrik modellarning qo'llanish sohalari.

## **Juftlik chiziqli regressiya**

Nazariy va empirik regressiya tenglamasi. Kichik kvadratlar usulining qo'llanilishi (Gauss-Markov sharti). Juftlik chiziqli regressiya tenglamasi koeffitsiyentlarini statistik ahamiyatlilikini baholash: Studentning t-kriteriyasi. Chiziqli regressiya tenglamasi koeffitsiyentlari uchun interval baholar. Regressiya tenglamasini baholashda statistik ahamiyatlilik: Fisherning F-kriteriyasi. Bog'liqli o'zgaruvchilar uchun ishonchlilik intervali.

## **To'plamli chiziqli regressiya**

To'plamli regressiya tushunchasi. To'plamli regressiyaning klassik chiziqli modeli. Kichik kvadratlar usuli bilan to'plamli chiziqli regressiya tenglamalari parametrlarini baholash. Student t-kriteriyasining to'plamli regressiya modellar uchun tatbiqi, ishonchlilik intervali. To'plamli  $R^2$  determinatsiya koeffitsiyenti. Fisher F-kriteriyasining to'plamli regressiya modellari uchun qo'llanilishi.

## **Chiziqsiz regressiya**

Darajali modellar. Kobb - Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi. Teskari model. Polinomial model. Ko'rsatkichli model. Modellarni tanlash. Xatolik turlari, ularning uchrashi va to'g'rilash. Modelning qoldiq hadini tekshirish.

## **Vaqt qatorlari va bashorat qilish**

Rivojlanishning asosiy tendensiyalari va ulardan chetlanish. Statsionar vaqt qatorlari. Avtokorrelyatsiya funksiyasi, korrelogramma, xususi avtokorrelyatsiya funksiyasi. Vaqt qatorlarini analitik tekislash. Vaqt qatorlari modellari asosida bashorat qilish.

### **Bog'liqlilikning statistik tekshirilishi**

Regression analizning asosiy masalasi. Chiziqli regressiya tenglamasi. Tanlanma korrelyatsiya koeffitsiyenti va uning xossalari. Korrelyatsiya koeffitsiyentining ahamiyatliligi. To'plamli regressiya. Chiziqsiz korrelyatsion bog'liqlik. Bosh komponentalar usuli. Statistik masalalarni yechish uchun Microsoft Excel dan foydalanish. Statistica - statistik tahlil paketi. Statistica paketining funksiyalari. Ma'lumotlarni statistik tahlili.

**08.00.13 – “MENEJMENT” IXTISOSLIGI BO‘YICHA NAMUNAVIY  
SAVOLLAR**

1. Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini loyihalashtirish. Rejalashtirish va tashkiliy loyihalashtirish
2. Boshqaruv qarorining amaldagi ijrosi va uning nazorati.
3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish bosqichlari. Boshqaruv qarorlariga qo‘yiladigan talablar.
4. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi.
5. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi noaniqlik va tavakkal.
6. Boshqaruv sohasidagi nazariy-metodologik ishlanmalar. Menejmentning mazmuni, rivojlanishidagi mumtoz modellar.
7. Boshqaruv tizimini rivojlanish tarixi.
8. Boshqaruning tashkiliy tuzilmasi.
9. Davlat boshqaruvidagi islohotlar. Davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi va taktikasi.
10. Zamonaviy bosqichda menejer etikasi va menejer madaniyati
11. Ijtimoiy mehnat munosabatlari. Ijtimoiy xamkorlik, nizoli vaziyatlarni boshqarish.
12. Iqtisodiy tizim boshqaruvi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti va koronoinqiroz sharoitida iqtisodiy tizimni boshqarish tajribasi.
13. Innovasion menejmentning tashkiliy shakllari
14. Innovasiyalar, fan va texnologiyalar sohasida davlat siyosati: innovasion rivojlanish modellari
15. Inson resrularini boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi
16. Inson resurslarini boshqarish samaradorligi.
17. Inson resurslarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari
18. Insoniy munosabatlar maktabi va uning nazariy asoslari.
19. Karyera va kadrlarni rivojlantirish.
20. Kommunikasiya va uning samaradorlik texnologiya va tamoyillari
21. Korporativ boshqaruv va uning tamoyillari
22. Korporativ boshqaruv va uning yangi zamonaviy modellarini izlash muammosi.
23. Korporativ boshqaruv prinsiplari va modellari.
24. Qarorlar qabul qilish va tashqi sharoitni baholashda regression tahlil usullari.
25. Qarorlar qabul qilishda SWOT tahlilining ahamiyati.
26. Loyihaviy boshqaruvning professional standartlari. Loyihaviy portfellarni boshqarishdagi strategik yondashuv.
27. Menejment tizimini rivojlantirishda boshqaruv konsaltingining o‘rni

28. Menejmentda inson omili. Pandemiya sharoitida tashkilotlarda ijtimoiy muammolarni hal etish yoʻllari
29. Milliy innovasion tizimlar va innovasion sohaning davlat tomonidan tartibga solinishi
30. Natijaga yoʻnaltirilgan boshqarish, uning nazariy asoslari.
31. Operasion va ishlab chiqarish menejmenti.
32. Personal auditi va kontrolling, rejalashtirish va bashoratlash.
33. Rahbar axloqi va madaniyati.
34. Risk menejment.
35. Starategik rejalashtirish va uning korxonani boshqarishdagi vazifasi.
36. Strategik menejment va uni amalga oshirish shakllari. Strategiyani nazariy asoslari.
37. Strategik menejment. Korporativ, raqobatli va funksional boshqaruv strategiyalari.
38. Tashkiliy madaniyat uning tuzilmasi, shakli va asosiy funksiyalari.
39. Tashkiliy xulq-atvor madaniyati va motivasiya.
40. Tashkilot missiyasi va strategiyani belgilash.
41. Tashkilotni boshqarish tizimini loyihalashtirish. Tashkiliy dizayn nazariyasi.
42. Tashkilotni boshqarish. Tashkiliy tuzilma va uning turlari.
43. Tashkilotni boshqarishni baholash. Oʻzaro manfaatdor tomonlar nazariyasi. Tashkilotni natijadorligini baholash usullari va koʻrsatkichlari
44. Oʻzgarishlarni boshqarish va uning modellari

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
2. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir / Mamlakatni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruza // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar, № 11 (6446).
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak nomdagi kitobi. - Toshkent: ”O‘zbekiston”, 2017.
4. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova.
5. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 11.09.2023-yildagi PF-158-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. // 28.01.2022.
3. Shodiev Sh.Sh., Xo‘jaev T.Sh. Menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 356 b.
4. Xaydarov B.Sh. Menejment asoslari. – Toshkent, 2020. – 284 b.
5. Mahkamov M.M. Strategik menejment. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022. – 240 b.
6. G‘ofurova D.J. Inson resurslarini boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 216 b.
7. Jo‘raev A.Q. Innovatsion menejment. - Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021. – 198 b.
8. Yoqubov S.E. Tashkilotlarni boshqarish nazariyasi. - Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2018. – 230 b.
9. Abdullaev R.Q., Bobojonov S.X. Iqtisodiy menejment. - Toshkent, 2019. – 210 b.
10. Murodova M., Abdullaeva D. Menejment va marketing asoslari. – Toshkent, 2020. – 275 b.
11. Xamidova Sh.X. Ta’lim muassasalarida menejment. – Toshkent, 2021. – 190 b.
12. Ro‘ziboev N.R. Menejment psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 205 b.
13. Abdushukurov A.A. Ehimollar nazariyasi va matematik statistika. - Toshkent: Universitet, 2010. - 169 b.
14. Yuldoshev N.K. Menejmentga kirish. Darslik.T.: TDIU, 2021-y. 23.
15. Yuldoshev N.K, Yusupova D.T. Tizimli menejment nazariyasi. Darslik. T.: TDIU, 2019 y.

16. Yoʻldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. Darslik. –T.: TDIU, 2013. - 433 b.
17. Yoʻldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik. –T.: TDIU, 2013. -230 b.
18. Yoʻldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xodjamuratova G.Yu. Menejment va marketing asoslari. Oʻquv qoʻllanma. – T.: TDIU, 2012.-258 b.
19. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. Darslik. –T.: Tafakkur boʻstoni, 2011.-335 b.
20. Xojiaxmedov Gʻ., Umarov X., Yaxʼyaeva I.N. Sifat menejmenti. –T.: Darslik. TTESI, 2012.-200 b.
21. Urinov B.N., Kenjayeva U.F. Korporativ boshqaruv.: Darslik – T.: OOO “DIADEMA NUR SERVIS”, 2024. – 405 b.
22. Ashurov Z.A., Jalilov F.A., Urinov B.N. Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba). – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 195 b.
23. Urinov B.N. Korxonalarda personalni boshqarishning korporativ usulidan foydalanish samaradorligi. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 125 bet.
24. Urinov B.N., Kenjayeva U.F. Korporativ boshqaruv: muammo va yechimlar. Monografiya – T.: Innovatsion rivojlanish, 2023 y. – 230
25. Ricky W.Griffin. Fundamentals of management. 8<sup>th</sup>-edition. 2015. – 510 p.
26. Грушенко В.И. Менеджмент. Восприятие сущности Менеджмента в условиях стратегических изменений: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М. 2014. – 288 с.
27. Максимцова М.М. Современный менеджмент: Учебник. //Под ред. проф., проф. В.Я.Горфинкеля. - М.: Вузовский учебник. ИНФРА-М, 2014. – 299 с.
28. Ансофф И. Стратегический менеджмент. – СПб.: Питер, 2009.
29. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник для вузов. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2008.
30. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: Учебник для вузов по экон. спец. и направл. – Третье изд. – М.: Гардарика, 2008.
31. Герчикова И.Н. Менеджмент: Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.
32. Дафт Р. Менеджмент. 6-е изд./ Пер с англ. – СПб.: Питер, – 2007.
33. Кравченко А.И. История менеджмента: Учебное пособие для вузов. – 7-е изд. – М.: Академический Проект; Альма Матер, 2012.
34. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ. – М.: Дело, 2012.
35. Основы менеджмента: учебное пособие/ Л.В. Плахова, Т.М. Анурина, С.А. Легостаева и др. – М.: КНОРУС, – 2007.
36. Семенов А.К., Набоков В.И. Основы менеджмента: – М.: ИТК «Дашков и К», – 2010.
37. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент– М.: АО «Бизнес-школа «Интел-Синтез», – 2008.
38. Гулин. В.Н. Информационный менеджмент: Учебный комплекс. - Минск: Соврем. шк., – 2009.

39. Ламбен. Ж.Ж., Чумпитас Р., Шулинг И. Менеджмент, ориентированный на рынок. 2-е изд. /Пер. с англ. Под. ред. В.Б. Копчанова.- СПб.: Питер, 2008.
40. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник. 3- изд.- СПб Питер, 2009.
41. Ермаков В.П., Макиев З.Г. Менеджмент для студентов вузов. – Изд. 5-е. - Ростов н/Д: Феникс, 2008.
42. Коноплев С.П., Коноплева В.С. Менеджмент продаж: Учеб. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2009.
43. Гончаренко Л.П. Менеджмент инвестиций и инноваций: учебник. – М.: КНОРУС, 2009.
44. Пивоваров С.Э., Тарасевич Л.С. Международный менеджмент: Учебник. 4-е изд.- СПб.: Питер, 2008.
45. Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2009.
46. Стратегический менеджмент. / Под ред. А.Н. Петрова.- СПб.: Питер, 2010.
47. Карлик А. Е., Рогова Е.М., Тихонова М.В., Ткаченко Е.А. Инвестиционный менеджмент: Учебник. СПб.: Вернера Регена, 2012.
48. Баврин И.И. Теория вероятностей и математическая статистика - М.: Высшая школа, 2005. - 160 с: ил.
49. Ивченко Г.И., Медведев Ю.И. Введение в математическую статистику: Учебник. М.: Издательство ЛКИ, 2010. - 600 с.
50. Кремер Н.Ш. Эконометрика: учеб. для студ. вузов / Н.Ш. Кремер, Б.А. Путко. - М.: Юнити-Дана, 2007. - 311 с.
51. Jeffrey Wooldridge. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. MIT Press: Cambridge UK, 2010, pp. 752.
52. Chris Brooks. Introductory Econometrics for Finance. Cambridge University Press UK, 2014, pp. 540.
53. Xolov A.X. Assessing the effectiveness of management decisions of local executive authorities. // Journal of Management Value & Yethics /Approved List Journal S.No. 1 & 63148. Jan-March. 18 Vol. 8 No.1 90-97 P.
54. Xolov A.X. Boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashning zamonaviy usullari va rahbar mas’uliyati. Monografiya. –Т.: «Tafakkur-qanoti» nas’hriyoti, 2017. -224 b.
55. Xolov A.X. Menejment fani rivojida bos’hqaruv qarorlari qabul qilis’hning psixologik usullarining ahamiyati. // «Fan va ta’limni rivojlantiris’hda yos’hlarning o’rni» respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to’plami. –Т.: O’zYoI, 2017-yil 24-noyabr. -533-537 b.
56. Холов А.Х. Оценки эффективности управленческих решений. Монография. Lambert Academic Publishing, Beau Bassin 2018 // <https://www.lap-publishing.com>. -54 s.
57. Xolov A. X. Boshqaruv qarorlari qabul qilishda tizimli tahlildan foydalanish masalalari. -J.: Jamiyat va boshqaruv, 2017. -2, 47 b.

58. Xolov A.X. Otsenki effektivnosti upravlencheskix resheniy. Monografiya. Lambert Academic Publishing, Beau Bassin 2018 // <https://www.lap-publishing.com>. -54 s.

**Internet resurslari:**

59. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
60. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi veb sayti.
61. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston qonunchiligi.
62. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net) - Ta’lim portali.
63. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) - Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
64. [www.oak.uz](http://www.oak.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya Komissiyasi.
65. [www.uzscience.uz](http://www.uzscience.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi.